



## BUYRUQ

2026-yil 23-aprel

100-son

Toshkent shahri

### “O‘zbekiston MET” AJ huzurida Jamoatchilik kengashini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 4-iyuldagi PQ-3837-son qarori hamda “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son farmoniga asosan,

#### BUYURAMAN:

1. “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati huzurida Jamoatchilik kengashi tashkil etilsin.

2. Quyidagilar:

- Jamoatchilik kengashining tarkibi **1-ilovaga** muvofiq;
- Jamoatchilik kengashining nizomi **2-ilovaga** muvofiq;
- Jamoatchilik kengashi ekspertlar (ishchi) guruhi tarkibi **3-ilovaga** muvofiq;
- Jamoatchilik kengashining 2026-yil uchun ish rejasi **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamoatchilik kengashi har chorak yakuni bo‘yicha Kengash yig‘ilishi o‘tkazilishini ta‘minlasin.

4. **Muvofiqlik tizimi (komplayens) xizmati (Raxmonov)ga:**

4.1. Jamiyatning hisobot yig‘ilishlari hamda Axborot xizmati tomonidan tashkil etiladigan matbuot anjumanlariga Jamoatchilik kengashi a‘zolarini taklif etish, shu jumladan bevosita yoki videokonferensaloqa orqali ishtirokini ta‘minlash;

4.2. hisobot choragidan keyingi oyining 5-sanasigacha Jamoatchilik kengashi yig‘ilishi bayonlarini rasmiylashtirish;

4.3. yil sarhisobiga bag'ishlangan ochiqlik siyosatiga taalluqli tadbirlar bayonini keyingi yilning 15-fevraliga qadar tasdiqlash uchun Jamoatchilik kengashi raisiga kiritish;

4.4. Jamiyat faoliyatining ochiqligini ta'minlashga doir belgilangan talablarning bajarilishi va ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish hamda tahlilini yuritish vazifalari yuklatilsin.

5. **Matbuot kotibi** — axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchi (Urunov):

5.1. har hisobot choragidan keyingi oyning 10-sanasigacha, shuningdek, yil sarhisobiga bag'ishlangan ochiqlik siyosatiga taalluqli tadbirlarni keyingi yilning 1-mart sanasigacha;

5.2. Jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar (telefon va elektron pochta manzillari), tasdiqlangan yig'ilish bayonlari va ochiqlik siyosatiga oid boshqa ma'lumotlarni Jamiyatning rasmiy veb-sayti hamda boshqa tegishli nazorat platformalariga yuklanishi va muntazam ravishda yangilab borilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.



**Boshqaruv raisi**

**A. Nazirov**

---

*Tarqatiladi: Jamiyatning markaziy apparati barcha tarkibiy bo'linmalari va filiallariga.*

*Ijrochi: MT(K)X, A.Raxmonov*